



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	



UDK 37.014.5:332.12(575.141)

O‘ZBEKISTONDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI

Davidxodjayev Oybek Obidovich

Osiyo Xalqaro Universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

E-mail: oybek.davidkhodjaev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta‘lim tizimining 2019–2024-yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot dinamik qiyosiy tahlil va ulush tahlili metodlari asosida olib borilgan. Ta‘lim muassasalari soni 5 yil ichida 8,5 foizga, o‘qituvchilar soni 16,5 foizga, 11-sinf bitiruvchilari soni esa 44,8 foizga oshgan. Buxoro viloyatida ko‘rsatkichlar respublika o‘rtacha sur‘atidan biroz past bo‘lsa-da, ta‘lim infratuzilmasi sifati bo‘yicha — xususan ta‘mirlashga muhtoj maktablarning yo‘qligi bilan — viloyat respublika miqyosida nisbiy ustunlikka ega. Sifat ko‘rsatkichlari — xususan PISA 2022 natijalari va 0,03 ta kompyuter/o‘quvchi ko‘rsatkichi — hali ham jiddiy takomilni talab qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida umumiy o‘rta ta‘lim tizimining miqdoriy va sifat o‘lchovlari o‘rtasidagi tizimli nomutanosiblik birinchi marta Buxoro viloyati ma‘lumotlari asosida miqdoriy tarzda ko‘rsatilgan. Natijalar viloyatda maqsadli ta‘lim siyosatini, xususan raqamlashtirish va o‘qituvchilar malakasini oshirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: umumiy o‘rta ta‘lim; ta‘lim infratuzilmasi; pedagog kadrlar; bitiruvchilar dinamikasi; Buxoro viloyati; PISA; ta‘lim sifati; raqamlashtirish.

Abstract. This article analyses the development trends of the general secondary education system in Uzbekistan over the period 2019–2024. The study is conducted using dynamic comparative analysis and share analysis methods. The number of educational institutions increased by 8.5% over five years, the number of teachers by 16.5%, and the number of 11th-grade graduates by 44.8%. While Bukhara region's indicators are slightly below the national average growth rates, the region holds a relative advantage in terms of educational infrastructure quality — particularly in having no schools requiring capital repair. Quality indicators, especially the PISA 2022 results and the digitalisation rate of 0.03 computers per pupil, still require substantial improvement. The scientific novelty lies in the first quantitative demonstration of a systemic disproportion between quantitative and qualitative measures of general secondary education using Bukhara region data. The findings are of practical significance for formulating targeted educational policy in the region, particularly programmes aimed at digitalisation and teacher professional development.

Key words: general secondary education; educational infrastructure; teaching staff; graduate dynamics; Bukhara region; PISA; education quality; digitalisation.

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития системы общего среднего образования в Узбекистане за период 2019–2024 годов. Исследование проводилось на основе методов динамического сравнительного анализа и анализа долей. Количество общеобразовательных учреждений за 5 лет увеличилось на 8,5%, численность учителей — на 16,5%, а количество выпускников 11 класса — на 44,8%. Показатели Бухарской области несколько уступают среднереспубликанским темпам роста, однако по качеству учебной инфраструктуры — в частности, по отсутствию школ, нуждающихся в ремонте, — область занимает относительно лидирующее положение. Качественные показатели, в особенности результаты PISA 2022 и уровень компьютеризации (0,03 компьютера на одного учащегося), требуют существенного улучшения. Научная новизна состоит в том, что системная диспропорция между количественными и качественными показателями системы общего среднего образования впервые продемонстрирована на основе данных по Бухарской области в количественном выражении. Результаты имеют практическое значение для формирования целенаправленной образовательной политики в регионе.

Ключевые слова: общее среднее образование; образовательная инфраструктура; педагогические кадры; динамика выпускников; Бухарская область; PISA; качество образования; цифровизация.



KIRISH

Ta'lim har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida poydevor vazifasini o'taydi. U nafaqat inson kapitalini shakllantiradi [10], [11], balki mintaqaviy raqobatbardoshlikni ta'minlash va barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ko'plab rivojlanayotgan davlatlar ta'lim sohasini ustuvor investitsiya yo'nalishi sifatida belgilashmoqda [5].

O'zbekistonda ta'lim sohasini isloh qilish 2016-yilgi keng miqyosli islohotlar to'loqida yangi turtki oldi. 2022-yilda qabul qilingan 'Yangi O'zbekiston' taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar ta'limga YalMning kamida 7 foizini yo'naltirish maqsad qilib belgilandi [7]. 2024-yilda davlat byudjetidan ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar o'tgan yilga nisbatan 15,4 foizga oshdi.

Viloyat miqyosida, xususan Buxoro viloyatida, ta'lim tizimining rivojlanishi yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi respublika darajasidagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar bilan cheklanadi [2]. Buxoro viloyatiga xos bo'lgan demografik, geografik va ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosliklar mahalliy ta'lim siyosatining alohida tahlilini zarur qiladi.

Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston va Buxoro viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari tizimi. Tadqiqotning predmeti — 2019–2024-yillar davomidagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari dinamikasi hamda mintaqaviy farqlanish.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimining 2019–2024-yillar davomidagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish hamda Buxoro viloyatidagi tendensiyalarni respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan qiyosiy o'rganish.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal etadi: (1) ta'lim muassasalari, pedagog kadrlar va bitiruvchilar sonining o'zgarish dinamikasini aniqlash; (2) Buxoro viloyatining respublika tizimidagi ulushi va o'sish sur'atlarini baholash; (3) ta'lim infratuzilmasi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha mavjud muammolarni aniqlash; (4) natijalar asosida siyosat tavsiyalarini shakllantirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim va inson kapitali nazariyasi sohasidagi fundamental ishlar Shultsning [10] va Bekerning [11] tadqiqotlari bilan bog'liq. Shults ta'limga qilingan xarajatlarni mahsuldor investitsiya sifatida baholash zarurligini isbotlagan; Beker esa ta'lim darajasi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni ko'rsatgan. Ushbu nazariy asos hukumatlarning ta'limga strategik yondashuvi uchun metodologik zamin hisoblanadi.

Xalqaro darajada ta'lim ko'rsatkichlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqani Xanushek va Vyossman [9] chuqur o'rganib, bilim kapitalining milliy o'sish suratiga ta'sirini miqdoriy jihatdan ko'rsatgan. OECD [3] ta'kidlashicha, resurslar miqdoridan ko'ra o'qituvchilar sifati va ta'lim metodologiyasi o'quvchi natijalariga ko'proq ta'sir qiladi — bu O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb xulosadur [16].

O'rta Osiyo va O'zbekistonda ta'lim tizimini o'rgangan asosiy ishlar qatoriga Jahon banki hisobotlari [6], [13] va ADB tahlillari [14] kiradi. Jahon banki 2018-yilgi Dunyo taraqqiyoti hisobotida "o'rganish inqirozi" tushunchasini kiritib, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar maktabga borsa-da, zaruriy bilimlarni egallayotgani yo'q degan xulosani asoslagan. UNESCO [5] va UIS [15] esa raqamlashtirish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatgan.

Mahalliy manbalar orasida Milliy statistika qo'mitasining yillik to'plamlari [1] va MHTI hisobotlari [2] respublika miqyosidagi statistikani taqdim etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda Buxoro viloyatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi tizimli nomutanosiblik alohida tadqiq etilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida Buxoro viloyatining 2019–2024-yillar davomidagi to'liq statistik ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlil olib boradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2019–2024-yillar oralig'idagi kuzatuv davrini qamrab oladi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik to'plamlari [1], MHTI hisobotlari [2], PISA 2022 natijalari [4] va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim vazirligi ma'lumotlari [8] qabul qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: (1) dinamik qiyosiy tahlil — 2019-yil bazis yil sifatida qabul qilinib, ko'rsatkichlarning nisbiy o'zgarishi hisoblandi; (2) ulush tahlili — Buxoro viloyatining respublika jami ko'rsatkichlaridagi og'irligi baholandi; (3) sifat ko'rsatkichlari benchmarkingi — O'zbekiston natijalari xalqaro standartlar va qo'shni davlatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirildi [3], [12]; (4) infratuzilma indikatorlari tahlili — raqamlashtirish, ta'mirlash holati va o'quvchi ortiqchaligi ko'rsatkichlari o'rganildi.

Barcha raqamli ma'lumotlar bevosita rasmiy statistik hisobotlardan olingan bo'lib, muallif tomonidan to'qilgan yoki taxminiy ko'rsatkichlardan foydalanilmagan. Jadvallar va ulardagi hisob-kitoblar dastlabki ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Respublika bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni 2019-yildagi 10 090 tadan 2024-yilga kelib 10 943 taga yetib, 5 yil ichida 853 ta yoki 8,5 foizga oshdi [1]. Bu o'sish demografik ko'payish va litsenziyalash tartiblarining sodalashtirilishi bilan izohlanadi. Buxoro viloyatida maktablar soni 548 tadan 588 taga yetdi — o'sish sur'ati 7,3 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston va Buxoro viloyatida umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni, 2019–2024 (birlik)

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Resp.	10 090	10 181	10 289	10 522	10 750	10 943
Buxoro viloyati	548	551	563	577	583	588
Buxoro ulushi (%)	5,4%	5,4%	5,5%	5,5%	5,4%	5,4%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1].

Viloyatning respublika jami maktablar sonidagi ulushi barqaror — 5,4–5,5 foiz oralig'ida — saqlandi. O'sish sur'atining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (8,5%) 1,2 foiz punktga past bo'lishi demografik ko'payishning nisbatan sekinroq ekanligi bilan izohlanadi.

4.2. O'qituvchilar soni dinamikasi

Respublika bo'yicha o'qituvchilar soni 2019-yildagi 501 042 nafardan 2024-yilga kelib 583 559 nafarGA ko'paydi — mutlaq o'sish 82 517 nafar yoki 16,5 foiz [1]. 2024-yilga kelib B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega chet tili o'qituvchilari 29 001 nafar yoki 59,1 foizni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston va Buxoro viloyatida o'qituvchilar soni, 2019–2024 (nafar)

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Resp.	501 042	523 312	529 116	541 473	548 546	583 559
Buxoro viloyati	29 166	30 435	30 500	31 232	30 930	33 272
O'qituvchi/maktab (Buxoro)	53,2	55,2	54,2	54,1	53,1	56,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1].

Buxoro viloyatida o'qituvchilar soni 2019-yildagi 29 166 nafardan 2024-yilga kelib 33 272 nafarGA yetdi — o'sish 14,1 foiz. 2023-yilda kuzatilgan qisqa muddatli pasayish (30 930 nafar) pedagog kadrlar almashinuvining muammoli tomoniga ishora qiladi [16]. 2024-yilda bir maktabga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni 56,6 nafarni tashkil etdi — sinf hajmi ortganligini ko'rsatadi.

4.3. Bitiruvchilar soni dinamikasi

Respublika bo'yicha 11-sinf bitiruvchilari soni 2019-yildagi 280 324 nafardan 2024-yilga kelib 405 919 nafarga — 44,8 foizga — oshdi [1]. Bu o'sish demografik ko'payish va 11 yillik ta'lim tizimiga to'liq o'tish bilan bog'liq. 2020-yildagi keskin ko'tarilish (454 333 nafar) 11 yillik tizimning birinchi to'liq bitiruvchilari chiqqan yilga to'g'ri keladi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston va Buxoro viloyatida 11-sinf bitiruvchilari soni, 2019–2024 (nafar)

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Resp.	280 324	454 333	442 893	388 762	387 001	405 919
Buxoro viloyati	16 980	25 871	25 237	22 418	22 955	22 881
Buxoro ulushi (%)	6,1%	5,7%	5,7%	5,8%	5,9%	5,6%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1].

Buxoro viloyatida bitiruvchilar soni 2019-yildagi 16 980 nafardan 2024-yilga kelib 22 881 nafarGA — 34,7 foizga — oshdi. 2023/2024-o'quv yilida viloyatdan chiqqan bitiruvchilarning 53,7 foizi qiz bolalar bo'ldi. Viloyatdagi o'sish sur'ati (34,7%) respublika ko'rsatkichidan (44,8%) past bo'lishi bazis davridagi farqlar bilan izohlanadi.

Miqdoriy o'sish bilan bir qatorda, ta'lim tizimida bir qator infratuzilma va sifat muammolari aniqlandi [6]. 2022 – 2023-o'quv yilida o'quvchilarning 33 foizi ikkinchi va uchinchi smenada ta'lim olishga majbur bo'lgan; haqiqiy o'quvchilar soni (6 461 741 nafar) maktablar sig'imidan (5 283 916 o'rin) 1 177 825 nafarga oshadi.



Qozog'istonda bir o'quvchiga 0,72kompyuter to'g'ri keladi va OECD mamlakatlaridagi 0,85 ko'rsatkichlaridan keskin farq qiladi [3]. Xalqaro PISA-2022 baholashida O'zbekiston 81 ta mamlakat orasida matematika bo'yicha 72-o'rinda, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi bo'yicha esa 80-o'rinda joylashdi [4].

Buxoro viloyati infratuzilma ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada nisbiy ustunlikka ega: 2024-yilgi tekshiruv natijalariga ko'ra, ta'mirlashga muhtoj maktablar mavjud bo'lmagan yagona viloyat Buxoro viloyati ekani aniqlandi [2]. Bu natija mahalliy ma'muriyatning ta'lim infratuzilmasini saqlash va profilaktik ta'mirlash bo'yicha tizimli ishlar olib borayotganligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar ta'lim tizimining miqdoriy va sifat o'lchovlari o'rtasidagi keng farqni yaqqol ko'rsatmoqda. Maktablar, o'qituvchilar va bitiruvchilar sonining barqaror o'sishi ijobiy tendensiyaga yetdi [13].

Buxoro viloyatining respublikadan biroz past o'sish sur'atlari (maktablar bo'yicha 7,3% vs 8,5%; bitiruvchilar bo'yicha 34,7% vs 44,8%) demografik pasayish yoki o'rta darajada shaharlanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq bu farq o'ta katta emas va butun kuzatuv davri mobaynida viloyatning respublika tizimidagi ulushi barqaror (5,4–5,5%) saqlanishi muayyan tizimli barqarorlikdan dalolat beradi.

O'qituvchi/maktab nisbatining 53,2 (2019) dan 56,6 (2024) ga o'sganligi maktab hajmining kattalashib borayotganligiga ishora qiladi [1].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki [9], [12], miqdoriy o'sish bilan bir vaqtda ta'lim sifatini ta'minlash uchun kompyuterlashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini isloh qilish bo'yicha maqsadli investitsiyalar zarur. Buxoro viloyati uchun bu ayniqsa dolzarb, chunki viloyat iqtidorli yoshlarni xalqaro standartlar darajasida tayyorlash uchun Prezident maktabi kabi maxsus ta'lim muassasasiga ega [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Birinchiidan, O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimi 2019–2024-yillar davomida barqaror miqdoriy o'sishni boshdan kechirdi: maktablar soni 8,5%, o'qituvchilar soni 16,5% va bitiruvchilar soni 44,8% oshdi. Buxoro viloyatidagi ko'rsatkichlar respublika o'rtacha sur'atlaridan biroz past bo'lsa-da, tizimli barqarorlik saqlandi.

Ikkinchiidan, Buxoro viloyati ta'lim infratuzilmasi sifati bo'yicha respublikada nisbiy ustunlikka ega, ammo o'qituvchilar almashinuvi, sinf to'ldiruvchanligi va raqamlashtirish ko'rsatkichlarida yechimni talab etadigan masalalar mavjud [2].

Uchinchiidan, O'zbekistonning xalqaro PISA-2022 reytingidagi ko'rsatkichlari [4] ta'lim tizimi sifat mexanizmlarini yanada takomillashtirish va tizimni tubdan yangilash uchun strategik imkoniyat yaratmoqda.

Bugungi kunda ta'lim sifatini tizimli ravishda yuksaltirishda zamonaviy kompyuterlashtirish jarayonlari [15], o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish hamda infratuzilmaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar sifat ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatli yaxshilashning asosiy va harakatlantiruvchi yo'nalishlari bo'lib xizmat qilmoqda [17].

To'rtinchiidan, Buxoro viloyatida yiliga 22 000 dan ortiq bitiruvchi yetishib chiqayotgan sharoitda iqtidorli yoshlarni tanlab tayyorlash mexanizmlarini — xususan Prezident maktabi kabi maxsus muassasalar orqali — mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etadi [18].

Kelajakdagi tadqiqotlarda ta'lim ko'rsatkichlari va hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion aloqani panel ma'lumotlar asosida o'rganish, shuningdek mahalla darajasidagi ta'lim imkoniyatlarining tengsizligini baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ta'lim sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar, 2019-2024. Toshkent: NSK, 2024, 182 b.
- [2] Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI). Umumiy o'rta ta'lim tizimining tahlili. Toshkent: MHTI, 2023, 94 b.
- [3] OECD, Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris, France: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/e13bef63-en
- [4] OECD, PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris, France: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/53f23881-en
- [5] UNESCO, Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education - A Tool on Whose Terms? Paris, France: UNESCO, 2023, 524 p.
- [6] World Bank, 'Uzbekistan: Improving Education System Quality,' World Bank Group, Washington, D.C., Rep. No. 179342-UZ, 2023.
- [7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. PF-60-son. Toshkent, 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
- [8] O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. 2024/2025-o'quv yili natijalariga doir axborot. Toshkent: MUOTV, 2025.
- [9] E. A. Hanushek and L. Woessmann, The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth. Cambridge, MA, USA: MIT Press, 2015.



- [10] T. W. Schultz, 'Investment in Human Capital,' *The American Economic Review*, vol. 51, no. 1, pp. 1-17, 1961.
- [11] G. S. Becker, *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. Chicago, IL, USA: University of Chicago Press, 1964.
- [12] OECD, 'Equity in Education: Breaking Down Barriers to Social Mobility,' OECD Publishing, Paris, France, 2018. DOI: 10.1787/9789264073234-en
- [13] World Bank, 'World Development Report 2018: Learning to Realize Education's Promise,' World Bank Group, Washington, D.C., 2018.
- [14] ADB, 'Financing Education in Uzbekistan: Challenges and Opportunities,' Asian Development Bank, Manila, Philippines, Rep., 2022.
- [15] UNESCO Institute for Statistics (UIS), 'ICT in Education in Central Asia: A Study of Five Countries,' UNESCO, Montreal, Canada, 2021.
- [16] E. A. Hanushek, 'The Economic Value of Higher Teacher Quality,' *Economics of Education Review*, vol. 30, no. 3, pp. 466-479, 2011.
- [17] UNDP, *Human Development Report 2023-2024: Breaking the Gridlock*. New York, NY, USA: UNDP, 2024.
- [18] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi 'Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida'gi PQ-4199-sonli qarori. Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4208152>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>